AXBOROT TAHDIDLARINING YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTIGA TA’SIRI

Davlat Axatqulovich Ximmatov
Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati institutining “Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviy-ahloqiy kamolotiga salbiy ta’sirlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda yoshlarning axborot tarbiyasi va ularda axborot madaniyatini shakllantirishda xalqimizning boy milliy-madaniy, tarixiy an’analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali usul va vositalarini amaliyotga joriy etilishi mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ma’naviy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, internet va axborot texnologiyalari, manipulyasiya, axloqiy normalar, ma’naviy tahdidlar, axborot xavfsizligi, axborot madaniyati.

ABSTRACT

This article analyzes the negative effects of today’s globalization processes on the spiritual and moral maturity of young people from a socio-philosophical point of view. Also, the mechanisms of implementing effective methods and tools based on the rich national-cultural, historical traditions, customs and universal values of our people in the information education of young people and the formation of information culture in them are explained.

Keywords: globalization, moral values, moral values, internet and information technologies, manipulation, moral norms, moral threats, information security, information culture.

KIRISH

Inson ongi va qalbi uchun kurash yangi sifatiy xususiyat kasb etayotgan bir davrda, e’tiqod umumiyligiga asoslanish, etnik birlikka urg‘u berish hamda yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog‘liqlikni ro‘kach qilish asosida yakka mafkuralar hukmronligini ta’minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar kuzatilmoqda.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk davlatlar maqomiga ega bo‘lgan ayrim mamlakatlar ko‘pgina mintaqalarni o‘zlarining “hayotiy manfaatlari” hududi sifatida bosib olib, uzoq vaqt

kolonial siyosat yurgizganiga ishonch hosil qilamiz. Bosib olingan hududlarning tabiiy, xomashyo resurslaridan foydalanish, moddiy va ma’naviy yutuqlarini o‘zlashtirish ularga ulkan va qudratli davlatga aylanishga imkoniyat yaratdi. Buning oqibati o‘laroq, o‘z atrofidagi mamlakatlar va xalqlar bilan munosabatda ustunlikka da’vogarlik, o‘zini ular ichida tanho, yagona deb bilish, insoniyat taqdiri va xalqlar kelajagini belgilashda alohida mavqega talabgorlikning ifodasi bo‘lgan mumtozlik mafkurasi tarix sahnasiga chiqdi. Tarix afsuski, mumtozlik mafkurasi avloddan - avlodga o‘tib o‘ziga xos tafakkur tarzi va psixologiyasining shakllanishiga, millatlar va davlatlararo munosabatlarda yangidan - yangi qaltis vaziyatlar, nizolarning kelib chiqishiga xizmat qilishini ko‘rsatmoqda.

Voqelik iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, sosial beqarorlik, ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat taqdiridan o‘zining tor guruhiy manfaatlarini ustun qo‘yadigan, hokimiyatga da’vogarlik qilishda o‘zaro kelisha olmayotgan siyosiy kuchlarning mavjud muammolarni tashqi kuchlar yordamida hal qilishga urinishi va ma’naviy-ruhiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik hukmron bo‘lgan mamlakatlar buzg‘unchi g‘oyalar nishoniga aylanishini ko‘rsatib turibdi. Ayni damda, bizning mamlakatimiz ham uzoq istiqboldagi rivojlanish strategiyasi asosida yuksak darajada axborotlashgan va axborot tizimlari keng rivoj topgan, aholisining intellektual qobiliyati va ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilish maqsadlarini amalga oshira boshladi. Bu jihatdan, hozirgi kunga kelib, axborotlar oqimi va ko‘lami, hayotning axborotlashuv jarayoni jamiyat rivojining ustuvor yo‘nalishlarini hamda kelgusidagi ko‘rinishini belgilab beradi. Bu esa o‘z navbatida yosh avlodning axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi bilan uzviy aloqadorligini ta’minlaydi, deb aytish uchun barcha asoslar shakllanmoqda, deyish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Insoniyatning bugungi avlodi bugun dunyoda globallashuv jarayonlari tig‘izlashgan, axborot almashinuvi jadallashgan, uning mazmuni tinimsiz yangilanib va ko‘lami jadal kengayib borayotgan davrda yashamoqda. Aksariyat olimlar zamonaviy globallashuv jarayonini axborot texnologiyalarining keng tarqalishi bilan bog‘lashmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi axborotlashgan jamiyat nomini olgan jamiyatning shakllanishiga turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonda bunyodkor g‘oyalar bilan birga, insoniyat hayotini buzadigan turli vayronkor g‘oyalar ham tarqalmoqda. Shubhasiz, biz axborot oqimi tevarak atrofimizni va ong shuurimizni o‘rgimchak to‘ri misol o‘rab olgan, tobora torayib borayotgan dunyoda yashayapmiz. Axborot asrining muhim xususiyatlaridan biri globallashuv jarayonlaridir. Globallashuv

yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqdalar. Professor S.Otamuratovning ta’kidlashicha: «Globallashuv bo‘laklarning yiriklashuvi, bir butun holatiga kelayotganligidir. Yana ham aniqrog‘i, yuksak darajada taraqqiy etgan mamlakatlarning kuchli bosimi ostida u millatlar, mamlakatlar va mintaqalarning barcha sohalar bo‘yicha bir butunligi vujudga kelishining ko‘rinishi, namoyon bo‘lishining ifodasidir».B. Umarovning xulosasiga ko‘ra: «...globallashuv jarayoni odamzodga o‘zaro axborot almashuv, aloqalarni mustahkamlash, ishlab chiqarish sur’atini kengaytirish borasida katta imkoniyatlar berish bilan birga yillar, asrlar davomida yetilib kelgan muammolarni ham yuzaga chiqara boshladi».

Shu o‘rinda aytish mumkinki, hozirgi global dunyoda yagona axborot makoni shakllandi**.** Shu makondan munosib o‘rin egallash uchun bo‘ladigan kurash O‘zbekistonni ham chetda qoldirmaydi. Chunki zamonaviy dunyoda jurnalistlar geosiyosatchilar kasbiga qiyoslanmoqda. Qanchadan-qancha mablag‘ axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo‘lishga qaratilayotgani bejiz emas. Zero, odamlarda, axborotni eng avval bera olgan, doimo haq bo‘ladi degan qarash mavjud bo‘ladi. Bu sohaga nisbatan bunday fikr bildirilishi aslo bejiz emas. Zero dunyoga tarqatilayotgan 80% axborotni sanoqli axborot agentliklari yetkazib bermoqda. Bu ularning hohlagan axborotni o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi hozirda juda murakkablashib ketdi. Unda ta’sir kuchiga ega bo‘lishni eng maqbul yo‘li sifatida, mablag‘ qancha ketishidan qat’iy nazar yirik axborot tarqatuvchilik mavqyeini egallash ekanligi hozirda sir bo‘lmay qoldi. Jahonda axborot urushi ketayotganini hatto oddiy insonlar ham sezishlari mumkin. Misol uchun biron mamlakat hududida ma’lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi risolalar, san’at asarlari, kinofilmlar, axborotlar va hakozolar tarqatilmoqda. Bunday informatsiyalar jamiyatda ma’lum ijtimoiy fikrni shakllanishiga ta’sir etmay qolmaydi.

Turli manfaat va maqsadlar ifodasi sifatida paydo bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalar, har xil ijtimoiy guruh va kuchlarga xizmat qilib, davr o‘tishi bilan tarix sahifalaridan o‘rin olgan. Ayni vaqtda, bunday g‘oya va mafkuralar muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda shakllangan bunyodkor mazmunga ega bo‘lgan ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga nisbatan mafkuraviy tahdidni o‘zida ifoda etadi.

NATIJALAR

Globallashuv sharoitida O‘zbekiston o‘zining maqbul yo‘lini tanlab olgan, deya ta’kidlashar ekan B.Umarov va

Sh.Jabborovlar, bu yo‘l odamlarni fikrini boshqarishni emas, balki ularda yuksak ma’naviylik tamoyillarini uyg‘otish kerakligiga e’tibor qaratadi va yosh avlodda mustaqil dunyoqarashni shakllantirishni asosiy vazifa, deb bilishiga urg‘u beradilar. Axborot maydonida nafaqat omon qolishni, balki yengib chiqishni asosiy sharti, erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas’ullikni to‘g‘ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. Afsuski, dunyodagi nopok kuchlar va g‘arazli kimsalar buni hohlashmaydi. Ularning maqsadi turli yo‘llar bilan yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirish, o‘ziga jalb qilish va nihoyat buning oqibatida mo‘may daromad olish. Misol uchun, bu sohadagi onlayn pornografiyasini olaylik. Biz uni kompyuter virusiga o‘xshatamiz. Bu viruslar odamlar ongini zaharlab ularda shahvoniy nafsni o‘yg‘otadi. O‘z navbatida pornografik saytlarni yaratgan shaxslar antivirus sifatida fohishabozlikni targ‘ib qiluvchi filmlarni sotuvga chiqaradi. AQShdagi xuddi shunday «antivirus»larni sur’atga olish bilan shug‘ullanuvchilarning umumiy yillik daromadi 97,3 milliard dollarni tashkil etadi. G‘arbiy Yevropadagi 10 ta davlatda pornografik mazmunga ega bo‘lgan gazeta, jurnal va filmlar uchun 130 milliard yevro ajratiladi. Mazkur holatlar bugungi kunda ba’zi yoshlarning qiziqqonligi va internetda ko‘p ishlashi ularning tarbiyasiga juda katta ta’sir etishini ko‘rsatadi.

Globallashuvning oqibatlari haqida fikr yuritar ekan, ba’zi mutaxassislar zamonaviy aloqa vositalari yoshlarni o‘ziga ohanrabodek tortayotgani sababli, «internet avlodi», «Google bolalari» yoki «Facebook farzandlari» singari iboralar paydo bo‘lganiga alohida urg‘u bermoqdalar. Ularning fikricha, bu hol o‘g‘il-qizlarimiz tarbiyasi birovlarning qo‘liga o‘tib qolishi ehtimolini oshiradi. Chunki ularga ota-onadan ko‘ra internet yoki uyali telefon ko‘proq «tarbiya» bera boshlaydi. Shu bilan birga, ayrim Yevropa davlatlarida “an’anaviy hokimiyatni tan olmaslik, undan qo‘rqmaslik” g‘oyasi ostida birlashayotgan NET avlod, Internet bolalari yoki fuqarolari (netizens) guruhi paydo bo‘ldi.

Bugungi globallashuv davrida jamiyat hayotining barcha sohalari axborotlashib borayotgani, bu jarayonning tobora kengayib, yangi jabhalarni zabt etayotgani hozirgi davrning ustivor tendensiyasiga aylandi. Bunday sharoitda insonning ma’naviy qiyofasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish, ayniqsa yoshlar, jumladan yoshlarni axborot sohasidagi tahdidlardan samarali himoyalash uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, ularda axborot xavfsizligiga doir tushunchalarni shakllantirish masalalarining ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda talaba-yoshlarning axborot tarbiyasi va ularda axborot madaniyatini shakllantirishda xalqimizning boy milliy-madaniy, tarixiy an’analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali usullar va vositalar ishlab

chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta’minlashda jamiyatning umumiy madaniyatini ko‘tarish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Bugungi hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Yoshlarimiz dunyo haqida, asosan ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumotga ega bo‘lishadi. Internet ham asosiy axborot bazasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ammo G‘arb madaniyatiga asoslangan ba’zi ko‘rsatuv va saytlar borki, bular axloqqa ziddir. Bundan tashqari televedeniye seriallar bilan to‘lib toshganligiga ham salbiy fikr bildirish mumkin. Chunki, yoshlarning asosiy vaqtlarini televizor ko‘rishga sarflashi ta’limning sifatiga ta’sir qiladi. Bu bir tarafi, matbuot gazeta va jurnallarda beriladigan ma’lumotlarning ham sayozligi yoshlarimiz fikrlash doirasiga salbiy ta’sir qiladi. Shunday ekan, ayrim yoshlarimizning internet tarmoqlari orqali berilayotgan har xil yot g‘oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganlarini aslo nazardan qochirmaslik kerak. Bu esa, o‘z navbatida, hozirgi dunyodagi mavjud murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda mafkuraviy immunitetini tarbiyalash ishlarini yanada faollashtirish kerakligini talab qiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlarimiz qalbida va ongida milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini o‘zida mujassam etgan, xalqimizning erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi maqsad va muddaolarini ifoda etadigan, ularni amalga oshirish yo‘lida uyushtiradigan ezgu g‘oyalarga sadoqat tuyg‘usini shakllantirishimiz lozim. Shu bilan birga, bunyodkor g‘oyalarga zid bo‘lgan, ma’naviy buzuq hamda jaholatga xizmat qiladigan inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g‘arazli niyat shuningdek, qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlarni, davlatlarni tanazzulga mahkum etadigan buzg‘unchi g‘oyalar ham borligini unutmaslik zarur.

XULOSA

Yoshlarda axborot xurujlariga qarshi yuksak ma’naviyat va madaniyat tamoyillarini tarbiyalashda har bir ta’lim muassasasining yoshlarni yetuk inson qilib yetishtirishda ishtirok etayotgan muallimlar va professor o‘qituvchilarning zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklangani shubhasiz. Ushbu jarayonda har bir o‘qituvchi va muallim nafaqat bilim beruvchi ustoz, balki talaba-yoshlarga tarbiya beruvchi murabbiy sifatida namoyon bo‘lishi davr talabiga aylangani ma’lum. Bu borada har bir professor-o‘qituvchi o‘z vazifasini faqat talaba-yoshlarga dars berishdangina iborat deb bilmay, xalq va davlat, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan yosh avlodni,

kelajakning faol fuqarolarini tarbiyalayotganini ham doimo e’tiborda tutishi maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1.Abduazimov O. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sosiologiyasining o‘rni (O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining 2001–2016 yillardagi materiallari misolida). Sosiologiya fanlari fan doktori (DSc) diss. -T., 2016.

2.Yuldasheva M. A’zamov B.Buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalar va ularning xarakterli xususiyatlari. Molodoy uchyonыy. № 3 (107). 2016.

3. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – Toshkent.:Yangi asr avlodi, 2008.

4.Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari. – Toshkent.:Ma’naviyat, 2006.

5. Kenjaboyev A.T. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. – T.:Ibn Sino, 2004

6. Grechko P. Intellektualnыy import ili o periferiynom postmodernizma// Obщyestvennыye nauki sovremennost. –M., 2000.

7. Umarov B., Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma’naviy tarbiya muammolari. -T.: “Akademiya”, 2011.

8. Erkayev A. Globallashuv, axborot xuruji va ommaviy madaniyat –T. 2009.

9. Babajanov S. Yoshlar ongini axborot xurujlari ta’siridan asrash. -http:// fikr.uz/ blog/ Urganch_davlat_Universiteti /eshlar-ongini-akhborot-khuruzhlari-tasiridan-asrash.html